

8 - SINF TARBIYA FANI

III CHORAK

BSB-2

Ijodiy ish. Sahna ko'rinishi: *Mavzu* "Taraqqiyot va biznes – ilm-fan va yaratuvchanlik mevasi". (Tinchlik, ezgulik, hamkorlik, insoniylikni, fan -texnika taraqqiyoti va inson ma'naviyatini namoyish etish. Darslikdagi topshiriqlardan foydalanib sahna ko'rinishi tayyorlash tavsiya etiladi).

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- Maqsadni aniq qo'ya olishi va amalga oshirishga intilishi;
- Mas'uliyatni anglashi;
- Mustaqil tafakkurga ega bo'lishi;
- To'g'ri qaror qabul qilishi;
- Jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishi;
- Kommunikativlik, faollik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko'rsata olishi;
- Axborot va ekomadaniyatga ega bo'lishi;
- Sog'lom turmush tarziga amal qilishi va targ'ib qilishi;
- Umuminsoniy va milliy madaniyatga rioya qilishi;
- Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi;
- Bir-birini takrorlamaydigan g'oyalarni tadbiq qilishi;
- Kreativlik;
- Nutq madaniyati;
- Jamoa bilan ishlash ko'nikmalari (sahna ko'rinishi 3 daqiqadan oshmasligi va guruhda 4-5 nafar o'quvchi ishtirok etishi tavsiya etiladi);
- O'quvchilar oldindan guruhlarga bo'linib sahna ko'rinishini har bir dars jarayonida navbati bilan taqdim etadilar. BSB – 2 kuni xato, kamchiliklar tahlil etiladi va baho qo'yiladi.

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	G'oyasi va kreativlik uchun	<u>20</u> ball
	1. Insonparvarlik g'oyasi ifodalanganligi uchun: 5 ball	
	2. Ilm-fanni targ'ib qilganligi uchun: 5 ball	
	3. Taraqqiyot va biznes, ilm-fan g'oyalari uchun: 5 ball	
	4. Sahna ko'rinishining tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi uchun: 5 ball	
2	Sahna ko'rinishi va senariyning maqsadga muvofiqligi uchun	<u>10</u> ball
	1.Sahna ko'rinishining maqsadga muvofiqligi uchun: 4 ball	
	2.Ro'llarning to'g'ri taqsimlanganligi uchun: 3 ball	
	3.Reja asosida tayyorlanganligi uchun: 3 ball	
3	Jamoa bilan ishlashi va tushuntirib berishi uchun	<u>10</u> ball
	1.Jamoa to'g'ri shakllantirilganligi va ahilligi uchun: 3 ball	
	2. Axborot madaniyatiga ega bo'lganligi uchun: 3 ball	
	3.Til bilishni targ'ib qilganligi uchun: 4 ball	
4	Nutq madaniyati uchun	<u>10</u> ball
	1.Sahna ko'rinishini mazmunli yoritib berganligi va vaqtni to'g'ri taqsimlaganligi uchun: 4 ball	
	2.Nutqning ravon bo'lishi uchun: 3 ball	
	3.Adabiy til me'yorlariga amal qilganligi uchun: 3 ball	
5	Plagiatlik uchun	<u>-20</u> ball
	JAMI:	50 ball